



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil  
yanvar-sentabr

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-sentabr)

65,9



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da

8 539,5




Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda

66,6




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- oktabr holatiga ko'ra)



## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar–sentabr)




## Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- oktabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-sentabr)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-sentabr)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-sentabr)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Sirdaryo viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>7 859,8</b>	<b>100,0</b>	<b>110,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2 192,4	27,9	109,1
Shirin	71,0	0,9	114,4
Yangiyer	379,3	4,8	118,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	444,6	5,7	106,0
Guliston	226,5	2,9	108,9
Mirzaobod	225,3	2,9	110,0
Oqoltin	192,9	2,4	109,9
Sardoba	204,4	2,6	111,7
Sayxunobod	231,7	2,9	107,6
Sirdaryo	724,8	9,2	111,9
Xovos	250,6	3,2	107,4

<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-sentabr)




## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-sentabr)

■ Hajmi, ming so'mda + O'sishi, % da

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sishi, % da
Guliston shahri	21 837,0	+5,9
Yangiyer shahri	7 837,0	+15,6
Sirdaryo tumani	5 248,7	+9,9
Shirin shahri	3 658,4	+13,8
Oqoltin tumani	3 438,5	+8,4
Boyovut tumani	3 180,4	+4,1
Sardoba tumani	2 890,8	+10,1
Guliston tumani	2 823,9	+6,6
Sayxunobod tumani	2 784,3	+6,2
Mirzaobod tumani	2 778,3	+7,8
Xovos tumani	2 433,0	+5,6




## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-sentabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **66,6** foizni, shu jumladan, **45,5** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙️ O'sishi, % da



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar

(2024- yil yanvar-sentabr)

Nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>7 859,8</b>	<b>100,0</b>	<b>110,1</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	332,6	4,2	116,4
Moliyaviy xizmatlar	1 639,2	20,8	107,4
Transport xizmatlari	713,6	9,1	118,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	664,5	8,5	118,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 300,0	29,3	110,3
Savdo xizmatlari	1 418,3	18,0	109,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	166,5	2,1	109,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	201,3	2,6	102,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	192,1	2,4	104,3
Ijara xizmatlari	99,1	1,3	117,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	154,2	2,0	114,0
Shaxsiy xizmatlar	125,9	1,6	105,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	47,1	0,6	108,0
Boshqa xizmatlar	469,9	6,0	108,7

## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr, mlrd so'mda)

Guliston shahri	1 013,9
Sirdaryo tumani	129,5
Boyovut tumani	110,2
Sayxunobod tumani	77,1
Oqoltin tumani	71,6
Sardoba tumani	58,1
Xovos tumani	54,7
Guliston tumani	52,9
Yangiyer shahri	42,1
Mirzaobod tumani	17,8
Shirin shahri	11,3

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-sentabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar - sentabr oylarida 93,0 foizni tashkil etdi.**


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **61,8 foizni yoki 1 013,9 mlrd so'mni tashkil etdi.**

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,1 %**.


Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **161,1** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **117,7 %** ni tashkil etdi.

## Transport xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)




<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmi hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


⚙️ O'sishi, % da

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi<sup>1)</sup> (yanvar-sentabr)

**2024- yil yanvar-sentabr** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **664,5** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **8,5 %** ni tashkil etdi.



Guliston shahar	146,8
Sirdaryo tumani	108,5
Yangiyer shahar	90,9
Guliston tumani	54,2
Xovos tumani	47,3
Mirzaobod tumani	36,2
Sardoba tumani	35,9
Boyovut tumani	24,9
Sayxunobod tumani	21,8
Oqoltin tumani	17,5
Shirin shahar	9,7



**Hajmi, mlrd so'mda** ● **O'sishi, % da**

<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

**2024- yilning yanvar - sentabr oylarida** chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **62,0** foizni tashkil etdi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-sentabr)<sup>1)</sup>



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)



Hudud nomi	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Sirdaryo tumani	304,3	+15,7
Guliston shahri	281,5	+11,7
Yangiyer shahri	135,9	+14,0
Xovos tumani	91,7	+7,5
Mirzaobod tumani	90,0	+13,2
Boyovut tumani	78,7	-7,8
Sayxunobod tumani	74,6	-5,0
Guliston tumani	60,4	-5,9
Sardoba tumani	60,1	+14,6
Oqoltin tumani	52,8	+6,6
Shirin shahri	22,1	+12,4

<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

○ O'sishi, % da




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-sentabr** oylarida ularning ulushi **86,1** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-sentabr)




<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da


## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr) <sup>1)</sup>



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-sentabr** oylaridagi ulushi **56,3 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda


 O'sishi, % da




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi<sup>1)</sup>

(yanvar-sentabr)

2024- yilning yanvar - sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi 16,0 foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi, % da

## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi (yanvar-sentabr) <sup>1)</sup>



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **74,6** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)




<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda


 O'sishi, % da

**2024- yilning yanvar - sentabr** oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **99,1** foiz.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-sentabr)



<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda  O'sishi, % da

## Ijara xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar–sentabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda

📈 O'sishi (kamayishi), % da



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – sentabr, mlrd so'mda)



**2020- yilning yanvar – sentabr** oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **57,7** mlrd so'mga oshib, **99,1** mlrd so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar - sentabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **34,9** % ni tashkil etdi.



<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda


## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi <sup>1)</sup>

(yanvar–sentabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **39,9** foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar–sentabr)




<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi, % da

## Shaxsiy xizmatlar dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar–sentabr, mlrd so'mda)



**2023- yilning yanvar-sentabr** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **25,2** mlrd so'mga oshib, **125,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **66,9** % ni tashkil etdi.

<sup>1)</sup> Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.